“Yangi O‘zbekiston-taraqqiyotning yangi bosqichi”da ijtimoiy-iqtisodiy fanlarni o‘qitishga zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalardan foydalanish

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

Buxoro viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi

“Yangi O‘zbekiston-taraqqiyotning yangi bosqichi”da ijtimoiy-iqtisodiy fanlarni o‘qitishga zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalardan foydalanish

Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi materiallari

(2023-yil,6-dekabr)

Tezislar va maqolalar to‘plami

Buxoro-2023

o‘z ifodasini topgan. Milliy qadriyatlarimizning umuminsoniy qadriyatlar xazinasini boyitayotgani, milliy ma’naviy boyliklarimiz butun insoniyatga xizmat qilayotganini e’tirof etishimiz lozim. “101” badiiy filmi Vatanga sadoqat, milliy g‘urur va insonning buyuk iroda, yengilmas kuch-qudratga egaligini madh etuvchi, uzoq kelajak avlodlarga ham saboq beradigan badiiy obida bo‘lib qoladi. Golland jurnalisti izlanishlari natijasida aniqlangan Ikkinchi jahon urushida asirga tushib qolgan 101 nafar o‘zbek jangchilari, chinakam bahodirlarining metin bardoshi, ona-Vatanga bo‘lgan muhabbatlari unda tarannum etilgan. Vatanparvarlik– umuminsoniy qadriyat. Innovatsion texnologiyalar asrida milliy va umuminsoniy qadriyatlar badiiy talqini yangi imkoniyatlarga, qudratli vositalarga ega bo‘lib, inson ruhiga, ma’naviy-axloqiyyuksalishiga, bo‘lajak fojealarga hushyorlik bilan qarashiga kuchliroq ta’sir etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.“Xalq so‘zi” gazetasi, 2017 yil 14 sentabr.

2.G‘afurov Ibrohim, Hayo xaloskor, “Mangu latofat”, Badialar, risolalar, 2-kitob, “ShARQ” nashriyot-matbaa akssiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, Toshkent, 2008 y. B.350.

3.Normatov U. , Yangi o‘zbek adabiyoti, o‘quv qo‘llanma, Toshkent, “Universitet” nashriyoti, 2007 y. B.21.

4.www.ziyouz.com kutubxonasi.

5.Bo‘rixon Luqmon, Bekatdagi qiz, hikoya, “Xizr ko‘rgan yigit”, Qissalar va hikoyalar, “ShARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, Toshkent, 2007 y. 247(manba: www.ziyouz.com kutubxonasi)

IJODIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHDA MA’NAVIY MEROSNING O‘RNI

Nozima Xakimovna Aslanova,

Buxoro viloyati PYaMO‘MM v.b. dotsenti,

p.f.b.f.d. (PhD).

Annotatsiya: Kishilar ongi, ichki dunyosi, ijodiy tafakkuri, his – tuyg‘ulariga ta’sir etib, ularni boyitish, rivojlantirish, yangi g‘oyaviy

yo‘nalishlarga boshlash ma’naviy merosning asl mohiyatini ifodalaydi. Maqolada ijodiy tafakkurni rivojlantirishda ma’naviy merosning o’rni keltirilgan.

Kalit so’zlar: ijod, tafakkur, ma’naviyat, meros, kompetensiya, mohiyat.

Kreativ (ijodiy) tafakkur insonga xos eng muhim xususiyatlardan biri. Bu xususiyatdan mahrum bo‘lgan inson bamisoli hamma ishni nomiga bajaradigan “robot”ga aylanib qoladi.

Ijodiy tafakkurga ega inson o‘z mustaqil fikriga ega bo‘ladi. U hayot uchun muhim bo’lgan kommunikativ kompetensiyaga ega bo’lib, atrofdagilar bilan erkin munosabatda bo‘la oladi. Shuningdek, har qanday voqea – hodisa yuzasidan o‘z fikrini to’liq ifoda eta oladi. Bu orqali jamiyatni ma’naviy yangilash unda ta’lim olayotgan yosh avlodning ongu – tafakkurini yuksaltirish, ezgu g‘oyalar tantanasini ta’minlashda muhim ijobiy natijalarga erishiladi. Shuning uchun hozirgi vaqtda mamlakatimiz ta’lim tizimida ijodiy tafakkur rivojiga asosiy e’tibor qaratilmoqda. Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan…”, degan fikrlarini esga olmoq joiz.

“Mutafakkir” so‘zining o‘zagi “fikr” so’zidir. Lekin, fikr yuritish qobilyatiga ega bo‘lgan insonlarning hammasini ham mutafakkir deb bo‘lmaydi. Yuksak, teran va qudratli tafakkur sohibi bo‘lib, milliy va umumbashariy qadriyatlar rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan buyuk ijodkorlar, allomalar va aziz avliyolar “mutafakkir” deb atashga munosibdirlar.

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridaroq ajdodlarimiz tomondan ko‘p asrlar mobaynida yaratib kelingan ulkan, bebaho ma’naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasidagi muhim vazifa bo‘lib qoldi.

Kishilar ongi, ichki dunyosi, ijodiy tafakkuri, his – tuyg‘ulariga ta’sir etib, ularni boyitish, rivojlantirish, yangi g‘oyaviy yo‘nalishlarga boshlash ma’naviy merosning asl mohiyatini ifodalaydi. Shuningdek, bugungi kunda ma’naviy merosning inson ijodiy tafakkuriga chuqur ta’sir etadigan qadriyat sifatida ahamiyati tobora yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Ma’naviy meros ajdodlar tajribasi, qoldirilgan ma’naviy boyliklarining kelgusi avlodlarning amaliy faoliyati, tafakkur tarzida qanday ahamiyat kasb etishiga ko‘ra, yakka shaxs, alohida guruh yoki muayyan millat vakillariga tegishli bo‘lishi mumkin. Ular ma’lum milliy tilda yaratilgani, milliy, madaniy – ma’naviy an’analar, qarashlarni aks ettirishiga ko‘ra millatga, ma’lum bir hududda istiqomad qiluvchi turli millatlarni qamrab olishi davlat hokimiyati amal qilib turgan davrda yaratilganiga ko‘ra davlatga, insoniyat tarixida tutgan yuksak o‘rniga ko‘ra sivilizatsiyaga xos bo‘ladi.

Xalqimizning boy ma’naviy merosi sifatida “Avesto”, “Qur’oni Karim”, “Hadisi sharif” kabi diniy kitoblarda o’z aksini topgan noyob insoniy qadriyatlar, xalqimiz amaliy san’ati va hunarmandchiligining yorqin namunalari, bezak san’ati namunalari, xattotlik, kandakorlik, ganchkorlik, yog’och o’ymakorligi kabi boqiy namunalar barchani tafakkur qilishga undaydi. Shuningdek, ijodiy tafakkur borasidagi bir qancha mashhur tadqiqotlarni muhokama qilish orqali insonda ijobiy ruhiyatning yuzaga kelishi, uni yanada rivojlanishini xarakterlovchi, kishining turli sohalarda muvaffaqiyatga erishishida amaliy yondashuv g’oyalari yuzaga keladi. Ushbu g’oyalarni bo’lajak mutaxassislar va shaxs sifatida shakllanayotgan yosh avlodning ongu shuuriga singdirish har bir pedagog va ota-onalarning millat va xalqi oldidagi muqaddas burchi sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

Инновации: теория, механизм, государственное регулирование: Учебн. пособие /Под ред. Ю.В. Яковца. – М.: РАГС, 2000.

70	**Nozima Xakimovna Aslanova** Buxoro viloyati PYaMO‘MM v.b. dotsenti,p.f.b.f.d. (PhD). **IJODIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHDA MA’NAVIY MEROSNING O‘RNI**	**339**
71	**Saodat Qaxxorova** Buxoro muhandislik-texnologiya instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi **XUSRAV DEHLAVIY FALSAFIY G‘OYALARINING JAMIYAT RIVOJIDAGI O‘RNI**	**342**
72	**Maxbuba Baxshilloyevna Sharipova** Buxoro davlat universiteti, Maktabgacha ta’lim kafedrasi o’qituvchisi, PhD **“ALPOMISH” DOSTONI VA BOSHQA JANRLAR MUNOSABATI**	**346**
73	**Sherxon QORAEV** TIQXMMI Milliy tadqiqot universitetining Qarshi Irrigatsiya va agrotexnologiyalari instituti dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori. **MUTAFAKKIR SHOIR VA SHAYX UBAYDULLAXONNING MUSHOIRA KECHALARI**	**352**
74	**Oripova Mavluda Qodirovna** BVPYMO’MM “Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi **BOBURNOMA» - NASRIY MEMUAR VA TARIXIY-ILMIY ASAR**	**360**
75	**Yadgarova Gulbaxor Tillayevna** p.f.n.,(P,hD)., Buxoro davlat pedagogika instituti, “Pedagogika” kafedrasi dotsenti **ULUG’ MUTAFAKKIRLAR YUKSAK MA’NAVIYATI – YANGI AVLOD PSIXIK TARAQQIYOTI YO’LIDA**	**365**
76	**Yuldosh Altiboyev** Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti	**371**